



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 633 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjievna Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari.....	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	



На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран.....	435
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining o'рни va imkoniyatlari.....	443
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг.....	448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili.....	454
Toshpulatov Bobur Rasul o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish.....	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari.....	463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan.....	468
Sattarov R.A.	
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region.....	476
Daminova Barno Esanovna	
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli.....	480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari.....	485
Salimov Akmal Alimjonovich	
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalari.....	490
Shadiyev Alisher Xudoynazarovich	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	496
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
O'zbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	502
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	
Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari.....	508
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
Yoshlar bandligini ta'minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati.....	514
Masharipov Farrux O'tkirovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari.....	521
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari.....	526
Sa'dulloev Habibullo Ibdullo o'g'li	
Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga ta'siri.....	530
Islomjon Nurmukhammadov	
Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash.....	533
Ismoilova Savinoz Qahramon qizi	
Oliy ta'lim muassalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	540
Karimov Muzaffar Abdumalik o'g'li	
Soliq yig'iluvchanligini oshirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari.....	546
Tojibayev Farrux Baxtiyorovich	
Hisoblash mashinalari taraqqiyoti tarixi va uning raqamli iqtisodiyotda tutgan o'рни.....	552
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari.....	561
Choriyrov Behruz Ilhom o'g'li, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Yashil texnologiyalar yordamida O'zbekiston hududlarida energiya tejamkorligi oshirish yo'llari.....	567
Norbekov Baxtiyor Suyunovich, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	



Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yo'llari.....	572
To'xtayeva Go'zal Ilhom qizi, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Интеграция проектного менеджмента и обеспечения качества в цепочках поставок: кейс Узгидромета.....	577
Назарова Ирода Ибрагим кизи	
Kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish.....	583
Ermatov Akmaljon Adxamovich, Raximov Alisher Numanovich	
Концепция и методология экологического аудита в Узбекистане	587
Абидова Дилфуза Игамбердиевна	
Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана.....	593
Салим Дониёров	
O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzulishi	598
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi (tahlili)ning nazariy masalalari.....	607
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
Strategic alliance networks as competitive advantage: evidence from mit-tum partnership model at new Uzbekistan university	613
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning nazariy asoslari.....	618
Uralov Temur Boxodir o'g'li	
O'zbekiston bank amaliyotiga ai va simulyatsiya modellarini joriy etish orqali muammoli kreditlarni qaytarish jarayonlarini optimallashtirish.....	618
Xodjayev Husniddin Mukammilovich	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish.....	624
Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi muammolar va imkoniyatlar	628
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	



XORAZM VILOYATIDA IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
Urganch hududiy filiali bosh metodisti
Elektron pochta: maxpein1612@icloud.com
ORCID: 0009-0009-2943-3321

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki va tashqi omillar atroflicha tahlil qilingan. Ichki omillar qatoriga hududiy tengsizlik, kadrlar tanqisligi, eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari hamda resurslarning yetarlicha qayta ishlanmasligi kabi masalalar kiritilgan. Tashqi omillar sifatida esa bozor cheklovlari, eksport bilan bog'liq muammolar, tashqi investitsiyalarning yetarli darajada jalb qilinmasligi, iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi, shuningdek, raqobatbardoshlikning pastligi singari omillar ko'rsatib o'tilgan. Maqolada Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan uchta asosiy omil — ishchi kuchi, tabiiy resurslar va logistika imkoniyatlari batafsil tahlil etilgan. Shuningdek, ilm-fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyot sohasidagi mavjud imkoniyatlar hamda ularni cheklovchi muammolar yoritilgan. Xorijiy tajribalar (Niderlandiya, Gruziya, Hindiston, Estoniya, Germaniya) o'rganilib, agrosanoat, turizm, kichik biznes va hunarmandchilik, raqamli iqtisodiyot hamda yashil iqtisodiyot yo'nalishlarida Xorazm viloyati sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan aniq yechimlar va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiy rivojlanish, o'sish qutblari, kadrlar tanqisligi, infrastruktura, resurslar, qayta ishlash, bozor cheklovlari, eksport, investitsiya, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, raqobatbardoshlik, ilm-fan, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, agrosanoat, turizm, kichik biznes, hunarmandchilik, yashil iqtisodiyot.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the internal and external factors hindering the economic development of the Khorezm region. Internal factors include regional inequality, labor shortages, outdated production capacities, and insufficient processing of available resources. External factors comprise market constraints, export-related issues, limited foreign investment, climate change, water scarcity, and low competitiveness. The paper highlights three key drivers of Khorezm's socio-economic development — labor force, natural resources, and logistics potential. It also explores existing opportunities and barriers in science, innovation, and the digital economy. Based on international experiences (Netherlands, Georgia, India, Estonia, Germany), the article puts forward concrete solutions and policy recommendations for the development of agro-industry, tourism, small business, handicrafts, digital economy, and green economy tailored to the region's context.

Key words: regional economic development, growth poles, labor shortage, infrastructure, resources, processing, market constraints, export, investment, climate change, water scarcity, competitiveness, science, innovation, digital economy, agro-industry, tourism, small business, handicrafts, green economy.

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализированы внутренние и внешние факторы, препятствующие экономическому развитию Хорезмской области. К внутренним факторам отнесены территориальное неравенство, нехватка кадров, устаревшие производственные мощности и недостаточная переработка ресурсов. К внешним — рыночные ограничения, проблемы с экспортом, недостаточный приток иностранных инвестиций, изменение климата, дефицит воды и низкий уровень конкурентоспособности. Особое внимание уделено трем ключевым



факторам социально-экономического развития региона — трудовым ресурсам, природным ресурсам и логистическим возможностям. Также рассмотрены потенциал и существующие проблемы в сфере науки, инноваций и цифровой экономики. На основе изучения зарубежного опыта (Нидерланды, Грузия, Индия, Эстония, Германия) предложены конкретные решения и рекомендации, применимые в агропромышленности, туризме, малом бизнесе, ремесленничестве, цифровой и «зеленой» экономике в условиях Хорезма.

Ключевые слова: региональное экономическое развитие, полюса роста, дефицит кадров, инфраструктура, ресурсы, переработка, рыночные ограничения, экспорт, инвестиции, изменение климата, дефицит воды, конкурентоспособность, наука, инновации, цифровая экономика, агропромышленность, туризм, малый бизнес, ремесленничество, зеленая экономика.

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanish nazariyalaridan biri bo'lgan Fransua Perru tomonidan ilgari surilgan “o'sish qutblari” nazariyasiga ko'ra, rivojlanish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bir xil sodir bo'lmaydi. Aksincha, drayver tarmoqlarda bu jarayon tezroq shakllanadi va mazkur tarmoqlar o'z atrofida boshqa sohalarning rivojlanishini rag'batlantirib, iqtisodiy markaz, ya'ni o'sish qutbini hosil qiladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanayotgan bo'lsa-da, ko'rsatkichlar dinamikasida sezilarli yuksalish kuzatilishi uchun bir qator vazifalar mavjud, deb hisoblaymiz. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladigan omillar yuzaga kelish xususiyatiga ko'ra ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Ushbu maqolada Xorazm viloyatining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'lida mavjud muammolar aniqlanadi hamda ularni hal etish bo'yicha xorijiy tajribalarga tayangan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqada iqtisodiy o'sish dinamikasi va unga taalluqli muammolar doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, I. Ruzmetovning “Iqtisodiy o'sish mexanizmlarini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida)” nomli maqolasida Xorazm viloyatidagi innovatsion o'sish mexanizmlari va hududiy xususiyatlar tahlil qilingan. Ushbu ishda suv resurslari, irrigatsiya, infratuzilma va erkin iqtisodiy zonalarining ta'siri asosiy omillar sifatida qayd etilgan [1].

Amanov A.K. o'z tadqiqotlarida Hozarasp erkin iqtisodiy zonasini — Xorazm viloyatining o'sish qutbi sifatida ko'rsatgan. Tahlillarga ko'ra, mazkur sanoat zonasida 414 ga yerni qamrab olgan holda 25 ta yangi loyiha va 1000 dan ortiq ish o'rni yaratgan [2].

Xorijiy ilmiy olimlardan Han-Sol Lee'ning Motivations and locational factors of FDI in CIS countries nomli maqolasida O'zbekiston uchun resurs va bozor tipi iqtisodiyoti asosida investitsiyalar jalb qilinayotgani, texnologik hamda transport imkoniyatlarini yaxshilash orqali bu tendensiyani yanada rivojlantirish mumkinligi ta'kidlangan [3].

Shuningdek, Faruque Ahamedning Impact of Public and Private Investments on Economic Growth of Developing Countries nomli tadqiqotida jamoat (public) investitsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni shaxsiy (private) investitsiyalarga nisbatan samaraliroq rag'batlantirishi mumkinligi ilgari surilgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Fransua Perruning “o'sish qutblari” nazariyasi kabi hududiy iqtisodiy rivojlanish nazariyalaridan foydalanilgan. Xorazm viloyatining iqtisodiy o'sishiga to'sqinlik qilayotgan omillar ichki va tashqi guruhlariga ajratilgan holda tahlil qilingan. Viloyatning iqtisodiy faoliyati, infratuzilmasi, kadrlar salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari, resurslardan foydalanish, tashqi savdo, investitsiya muhiti, ekologik holati, ilm-fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi mavjud imkoniyatlar hamda muammolar atroflicha ko'rib chiqilgan. Tahlillar natijasida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha aniq takliflar va ustuvor yo'nalishlar ilgari surilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatining iqtisodiy o'sishi uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularni to'liq ishga solish maqsadida bir qator strategik yo'nalishlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Viloyatda mavjud bo'lgan hududlararo farqlarni kamaytirish maqsadida resurslardan foydalanishning muvozanatli mexanizmlarini shakllantirish, chekka tumanlarda iqtisodiy faollikni oshirishga yo'naltirilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Yangiariq, Xonqa, Qo'shko'pir tumanlarida sanoat infratuzilmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni hududiy muvozanatda oshirish mumkin.



Viloyat infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish imkoni mavjud. Energiya ta'minotining barqarorligini ta'minlash, ichki va xalqaro transport yo'llarini rekonstruksiya qilish, shuningdek, yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish raqamli iqtisodiyot asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa xizmatlar sohasi va ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kadrlar salohiyatini oshirish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib, bu borada ta'lim tizimi bilan ishlab chiqarish sektori o'rtasida integratsiyani kuchaytirish, amaliyotga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnologik tarmoqlar uchun muhandislar, texnologlar va menejerlar tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv markazlarini tashkil etish natijasida zamonaviy sanoat ehtiyojlariga mos kadrlar zaxirasi shakllantiriladi.

Mavjud ishlab chiqarish obyektlarini modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot sifatini oshirish va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Yangi texnologiyalarni jalb qilish va texnik qayta jihozlash dasturlarini amalga oshirish bu borada asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mahsulotlarga qo'shilgan qiymatni oshirib, ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatining tashqi savdo salohiyatini oshirish uchun eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va transport xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim hisoblanadi. Bu jarayonda tashqi bozorlarga integratsiyani jadallashtirish va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish orqali mahsulotlarimiz jozibadorligini oshirish mumkin.

Tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha investitsion muhitni yanada yaxshilash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, soliq va bojxona tizimining barqarorligini ta'minlash hamda tayyor investitsion loyihalarni ishlab chiqish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash mumkin. Bu esa iqtisodiy o'sishning yangi drayverlariga zamin yaratadi.

Iqlim o'zgarishi va suv resurslari bilan bog'liq global chaqiriqlarga barqaror yechim topish maqsadida suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish va iqlimga moslashtirilgan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini rivojlantirish zarur. Bu strategiya ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida xalqaro sifat standartlariga muvofiqlikni ta'minlash, sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va marketing strategiyalarini kuchaytirish lozim. Brending, dizayn va raqamli savdo platformalari orqali mahsulotlarning bozor jozibadorligini oshirish raqobat muhitini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati turli yo'nalishlarda izchil rivojlanayotgan bo'lib, mavjud imkoniyatlar asosida strategik yondashuvlar orqali yanada yuqori darajaga ko'tarilishi mumkin. Aholi tarkibida yoshlarning salmoqli ulushi mavjud bo'lib, bu mehnat resurslarini shakllantirishda barqaror demografik zamin yaratadi. Yoshlarga yo'naltirilgan bandlik siyosati va kasbiy tayyorgarlik dasturlari orqali bu salohiyatni to'liq ishga solish imkoniyati mavjud.

Mehnat bozorida ijobiy dinamikani kuchaytirish maqsadida iqtisodiyotning qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga diversifikatsiyasi izchil davom etmoqda. Davlat dasturlari doirasida qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining (subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va yangi ish o'rinlarini yaratish) amaliyotga joriy etilishi ishsizlik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali qishloq xo'jaligi mahsulodorigini oshirish istiqbollari yuqori. Xususan, sug'orma dehqonchilik uchun qulay agroiklimiy sharoitlar mavjud bo'lib, paxta, g'alla, mevasabzavot kabi mahsulotlar yetishtirishda yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar, jumladan, issiqxona majmualari, tomchilatib sug'orish tizimlari va agrotexnika vositalarining keng joriy etilishi viloyatning agrosanoat klasterini barqaror rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Transport infratuzilmasining bosqichma-bosqich takomillashtirilayotgani viloyat ichki logistikasining uzluksizligini ta'minlab bermoqda. Avtomobil va temir yo'l ko'priklarining qurilishi, ichki yo'llarning rekonstruksiyasi iqtisodiy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida temir yo'l va avia yo'nalishlar tarmog'ining kengaytirilishi orqali tashqi savdo va tranzit salohiyatini yanada to'liqroq ro'yobga chiqarish mumkin. Bu yo'nalishda logistika tizimiga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Viloyatning strategik joylashuvi – chegaradosh hudud sifatida – uning xalqaro tranzit markaziga aylanish imkonini ochib beradi. Bu salohiyatni to'liq ishga solish uchun chegaraoldi logistika zonalarini tashkil etish va xalqaro savdo yo'llarini integratsiyalash talab etiladi.

Ilm-fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyot sohasida Xorazm viloyatida keng ko'lamlı salohiyat shakllanmoqda. Hozirda faoliyat yuritayotgan 7 ta oliy ta'lim muassasasi, xususan Urganch davlat universiteti



va boshqa akademik markazlarning infratuzilmasini kengaytirish bo'yicha rejalashtirilgan qurilishlar zamonaviy bilim va tadqiqot makonining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy va innovatsion faollikni oshirish maqsadida "Yoshlar markazlari"ning faoliyati, texnologik to'garaklar va startap inkubatorlarning tashkil etilishi mahalliy innovatorlar va tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratmoqda. "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasi doirasida innovatsion ishlab chiqarish liniyalarini yo'lga qo'yish va maxsus soddalashtirilgan sharoitlar orqali yangi texnologiyalarni joriy etish boshlangan.

Viloyatda axborot texnologiyalari sohasi ham rivojlanish bosqichida bo'lib, "Raqamli Xorazm" dasturi orqali raqamlashtirish loyihalari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Urganch shahrida IT Park filialining faoliyati, yoshlar orasida IT, dasturlash, dizayn va sun'iy intellekt sohaslariga bo'lgan yuqori qiziqish bilan birgalikda, kelajakda viloyatda raqamli iqtisodiyotga mos malakali kadrlar bazasini shakllantirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyatida ilm-fan va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga ajratiladigan sarmoyalar (2025-yil uchun)

Obyekt	Loyihaning maqsadi	O'rinlar soni	Ajratiladigan mablag' (mlrd so'm)	Moliyalashtirish manbasi
Urganch davlat universiteti	Yangi o'quv binosi qurilishi	1 500 ta	55	Davlat mablag'laridan va o'z mablari hisobidan
Urganch davlat pedagogika instituti	Yangi o'quv binosi qurilishi	1 000 ta	40	Davlat mablag'laridan va o'z mablari hisobidan

Xorazm viloyati o'z rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanishi mumkin.

Agrosanoat kompleksi (Niderlandiya tajribasi): Niderlandiyaning texnologik issiqxonalar, suvni tejevchi tizimlari va raqamli monitoring tajribasini Xorazm sharoitiga moslashtirib qo'llash orqali zamonaviy issiqxonalar qurish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish mumkin. Bu choralar hosildorlikni oshiradi va suv resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Turizm (Gruziya tajribasi): Gruziyaning tarixiy obidalar, gastronomik va ekologik turizmga alohida e'tibor qaratishi Xorazm viloyati uchun namuna bo'lishi mumkin. Ichan-Qal'a va boshqa tarixiy obidalarni xalqaro turizm markaziga aylantirish, mahalliy oshxonaga asoslangan gastronomik turizmni rivojlantirish hamda Amudaryo deltasida ekoturizmni yo'lga qo'yish viloyatning turistik jozibadorligini oshiradi.

Kichik biznes va hunarmandchilik (Hindiston tajribasi): Hindistonning ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kichik biznes dasturlari va an'anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish tajribasini Xorazmda tatbiq etish orqali gilamdo'zlik, zardo'zlik, kulolchilik kabi yo'nalishlarda hunarmandchilikni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, yoshlar va ayollar uchun mikrokreditlar asosida biznes boshlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli platformalar orqali mahsulotlarni onlayn sotish eksport salohiyatini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot va IT sektor (Estoniya tajribasi): Estoniyaning elektron hukumat, raqamli fuqarolik va masofaviy xizmatlar kabi raqamli yechimlarini keng joriy etish tajribasi Xorazm viloyati uchun ideal model bo'lishi mumkin. Yoshlar uchun IT maktablari va startaplar uchun inkubatorlar tashkil etish, davlat xizmatlarining raqamlashtirilgan shakllarini kengaytirish hamda xorijiy IT kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali "outsourcing" xizmatlarini rivojlantirish mumkin. Bu esa viloyat iqtisodiyotini raqamlashtirishga sezilarli turtki beradi.

Yashil iqtisodiyot (Germaniya tajribasi): Germaniyaning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol) keng joriy etish tajribasi Xorazm uchun muhim ahamiyatga ega. Viloyatda quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi chiqindilaridan biogaz olish orqali bioenergetika loyihalarini joriy etish va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi asosida investitsiyalarni jalb qilish ekologik barqarorlikni ta'minlash va energetik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanish istiqbollari keng bo'lib, mavjud ichki va tashqi omillarni strategik yondashuvlar bilan tahlil qilish orqali ulkan salohiyatni ishga solish mumkin. Ichki tizimda kuzatilayotgan hududiy nomutanosiblik, kadrlar yetishmasligi, infratuzilma rivojlanishining sekin sur'atlarda borayotgani va texnologik yangilanish ehtiyoji viloyatda kompleks islohotlarni amalga oshirishga asos bo'lmoqda. Bu esa iqtisodiy faollikni barcha tumanlarda muvozanatli tarzda kengaytirish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy makonda esa global bozorlarga kirishdagi ma'lum to'siqlar, sarmoya jalb qilish bo'yicha potensialning to'liq ishga solinmaganligi, ekologik barqarorlikka oid chaqiriqlar va xalqaro savdodagi raqobat



muhitining keskinligi viloyatni o'ziga xos strategik islohotlar maydoniga aylantirmoqda. Bu omillarni rivojlanish imkoniyati sifatida qarab, ularni zamonaviy yondashuvlar orqali bosqichma-bosqich bartaraf etish mumkin.

Ayniqsa, viloyatdagi yuqori demografik salohiyat – yoshlarning mehnat bozoriga kirishish darajasi va innovatsion sohalarga qiziqishi – kelajakda raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ishlab chiqarish uchun malakali kadrlar bazasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Sug'orma dehqonchilikka mos yerlar, qurilish va qishloq xo'jaligi xomashyolari kabi resurslar esa agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda strategik ustunlik bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Viloyatda ilm-fan va innovatsiya sohalariga e'tibor ortib borayotgani, oliy ta'lim muassasalarining son jihatdan ko'payishi va ilmiy infratuzilmaning mustahkamlanishi innovatsion ekotizim barpo etish uchun barqaror asos yaratmoqda. Mazkur jarayonda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Kelgusi bosqichlarda Xorazm viloyatida barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun bir qator ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarbdir. Jumladan, chekka tumanlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish orqali hududlararo iqtisodiy muvozanatga erishish, aholining daromadlarini oshirish va mahalliy ish o'rinlarini kengaytirish mumkin.

Energetika, transport va raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishni jadallashtirish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki logistika va xizmatlar sifati ham yuksaladi. Eksport salohiyatini kengaytirish uchun mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, chuqur qayta ishlovchilar tarmog'ini kengaytirish, sertifikatlash va xalqaro standartlarga moslashtirish kabi yo'nalishlar ustuvor bo'lib qoladi.

Shuningdek, xorijiy tajribalarni – xususan Niderlandiya, Estoniya, Gruziya, Hindiston va Germaniya kabi mamlakatlar amaliyotini – o'rganib, ularni moslashtirilgan shaklda joriy etish orqali tarmoqlar kesimida innovatsion boshqaruv modellari tatbiq etilishi mumkin. Bunda ilg'or texnologiyalar, startap ekotizimi va "aqlli hudud" konsepsiyalari alohida e'tibor talab qiladi.

Iqlim o'zgarishi va suv resurslarining optimallashtirilishi masalalarida esa yashil texnologiyalar, suv tejavchi texnikalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilishi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishi yo'lida mavjud salohiyatni to'liq ishga solish, tizimli islohotlar olib borish va innovatsion yechimlar asosida harakat qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yangi bosqichga chiqish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 04.04.2022-yildagi 154-son <https://lex.uz/uz/docs/-5939831>
2. Iqtisodiy o'sish: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A. Abduvoxidov, Z.M.Zikriyayev, M.A.Mamatov, G'.I.Berdiyev, E.N. Bo'riboev, D.B.Eshpulatov Guliston, Ziyos nashr - matbaa, 2022.- 15 b
3. https://zenodo.org/records/10457648?utm_source
4. https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/2834?utm_source
5. https://zenodo.org/records/15472916?utm_source
6. https://arxiv.org/abs/2105.14199?utm_source



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
